



HISTORICAL REALITIES AND PHILOSOPHICAL IDEALS: DIALOGUES ACROSS DISCIPLINES

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

**TASHKENT, SEPTEMBER
20, 2025**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE
AND INNOVATION OF REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES**

**RESEARCH CENTER FOR THE STUDY OF EASTERN
CULTURE AND HERITAGE**

**HISTORICAL REALITIES
AND PHILOSOPHICAL IDEALS: DIALOGUES ACROSS
DISCIPLINES**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

Tashkent, September 20, 2025

International Scientific-Practical Conference “Historical realities and philosophical ideals: dialogues across disciplines”[Text]/ – Tashkent: Tashkent State University of Oriental Studies, 2025. -698 p.

This collection contains the materials of the international scientific-practical conference “Historical Realities and Philosophical Ideals: Dialogues Across Disciplines.” The volume includes articles dedicated to the theoretical and practical issues of interdisciplinary approaches in historical research, the history of the interconnected development of Eastern regions, current problems of historical source studies and historiography, the significance of interdisciplinary studies in exploring tangible and intangible cultural heritage, as well as the main directions of Eastern philosophy and culture. The authors of the articles are leading experts in their respective fields and young researchers.

Chief editor:

Mirzohid Askarov

Editorial board:

B.Zokirov, Sh.Yodgorov, M.Khubbaliyeva, M.Turdikhujayeva,
M.Nabiyev, R.Isakov, G.Abduvakhobova, Sh.Abdurasulov, G.Jumayev

The conference materials were reviewed by the Academic Council of the Faculty of “Eastern Civilization and Philosophy” at Tashkent State University of Oriental Studies and recommended for publication (No. 3, dated October 23, 2025).

IBN SINO ILMIY MEROSINING JAHON MIQYOSIDAGI O'RNI

Sherali Jurayev

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o'qituvchisi, PhD

Kalit so'zlar: Ibn Sino, Sharq falsafasi, ilmiy meros, metafizika, mantiq, axloq, tasavvuf, Beruniy, "Donish-noma", "ash-Shifo", "al-Ishorat va at-Tanbihat".

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq falsafasi va uning buyuk vakili Abu Ali ibn Sinoning ilmiy va falsafiy merosi har tomonlama tahlil qilinadi. Unda Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari, tibbiyot, metafizika, mantiq, axloq va tasavvufga oid asarlari, shuningdek, ularning Sharq va G'arb falsafasiga ko'rsatgan ta'siri yoritilgan. Maqola, shuningdek, Ibn Sinoning Beruniy bilan yozishmalari, "Donishnoma", "ash-Shifo", "al-Ishorat va at-Tanbihat" kabi asarlarining mazmuni va ahamiyatini tahlil etadi. Uning merosi bugungi kunda ham falsafa va ilm-fan rivojiga muhim manba bo'lib xizmat qiladi

THE GLOBAL SIGNIFICANCE OF IBN SINA'S SCIENTIFIC LEGACY

Sherali Jurayev

Senior Lecturer at the Tashkent State University of Oriental Studies, PhD

Key words: Ibn Sina, Eastern philosophy, scientific heritage, metaphysics, logic, ethics, Sufism, al-Biruni, Danishnama, ash-Shifa, al-Isharat wa at-Tanbihat.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of Eastern philosophy and the intellectual legacy of the great scholar Abu Ali Ibn Sina (Avicenna). It explores his contributions to natural and social sciences, medicine, metaphysics, logic, ethics, and Sufism, as well as their influence on both Eastern and Western philosophical traditions. The article also examines his correspondence with al-Biruni and the significance of key works such as Danishnama, ash-Shifa, and al-Isharat wa at-Tanbihat. Ibn Sina's legacy continues to serve as an essential source for the advancement of philosophy and science today.

KIRISH

Arab dunyosi, Eron, Baynalnahrin, Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Koreya va Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy merosini o'zida jamlagan Sharq falsafasi doimo dunyo olimlarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Globallashuv jarayonlari tobora rivojlanib, inson ongi uchun g'oyaviy kurash keskin tus olayotgan XXI asrda mamalakatimizda Sharq falsafasi va qadriyatlarini o'rganishga katta e'tibor berilmoqda.

ASOSIY QISM

Xalqimizning o'tmishda yaratgan madaniy merosini chuqur o'rganish, madaniyatimiz tarixini ilmiy asosda har tomonlama yoritib berish hozirda jahon madaniyatining taraqqiyot yo'lini to'g'ri tushunishda, har bir xalqning bu madaniyat xazinasiga qo'shgan hissasini aniqlashda muhim ahamiyatga egadir. Biz o'z taqdirimizni ilmiy xulosalar asosida tahlil qilib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orzu qilib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz. Bu jihatdan ayniqsa, madaniy taraqqiyotga ulkan hissa qo'sha olgan buyuk shaxslarning ma'naviy dunyosi, fikriy intilishi, maqsadini to'g'ri talqin etish muhim rol o'ynaydi. Chunki ular ijodida ma'lum bir davrning yutug'i, o'sha zamon fikr-u zikri o'z ifodasini topgan bo'ladi.

O'rta asr musulmon Sharqi tabiiy - ilmiy va ijtimoiy - falsafiy fikrlar buyuk namoyondasi Abu Ali ibn Sinodek shaxs ilm - madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo'sha olgan shunday siymolardan biri edi. Biz haqiqatdan ham uning asarlari orqali barcha ilmlar mundarijasiga, boyligi, o'sha davr dunyoqarashi, ma'naviy hayotining barcha masalalari bilan to'la - to'kis tanisha olamiz.

Aytish kerakki, "Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql - idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblardan ko'p bo'lgan. Imom Buxoriy, Bahouddin Naqashbandiy, Ibn Sinolar milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdilar.

Darhaqiqat, Forobiy, Ibn Sinolardek buyuk siymolarimiz bor ekan, biz faxrlanamiz, g'urulanamiz, ularga yetolmasakda ulardek bo'lishga intilamiz. Milliy ma'naviyatimizning tarixi shunday ulug'vorki, hozirgacha maqtanishga arzigudek shaxslar bor. Shunday shaxslardan biri bo'lgan alloma, faylasuf va hakim Ibn Sinodir.

Dunyo miqyosida Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosi, xususan Ibn Sinoning ilmiy asarlari Kolumbiya Universiteti, Kornell Universiteti, Oksford Universiteti, Leiden Universiteti, Rossiya fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti, Tehron Universiteti, Istanbul Universiteti kabi bir qancha oliygoh va tadqiqot markazlarida qo'lyozma manba sifatida tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmoqda. Jahonning bir qancha oliygohlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida Ibn Sinoning ilmiy merosi nafaqat Sharq, balki G'arb

falsafasining rivojlanishiga, hur fikrli jamiyatning shakllanishiga sabab bo'lganligini nemis tadqiqotchisi E.Blox o'z asarlarida yozib qoldirganligini ko'rish mumkin. Ibn Sino ilmiy merosini o'rganish bo'yicha G'arbda sharqshunos, ilohiyotshunos olim, faylasuflari tomonidan tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, Robert Visnovsky, Herbert Davidson, Parvez Morverij, Peter Heaz, Ayman Shihadeh, Stefen Ogden, Ernest Block Ibn Sinoning hayoti va ijodini, uning metafizikasini chuqur tahlil qilib, sharhlar yozgan. Dimitri Gutas Arastu va Ibn Sino ilmiy merosi, ularning metafizikasining analizi ustida ish olib borgan.

Ibn Sino (373-428 qamariy, ya'ni 980-1037 milodiy) va Abu Rayhon Beruniy (362-440 qamariy, ya'ni 973-1048 milodiy) X-XI asrlarda yashab o'tgan ikki zamondosh buyuk olim edilar. Ammo Beruniy Ibn Sinodan yosh jihatdan ancha katta edi. Bu ikki zabardast olimning bir-birlari bilan qilgan ilmiy bahslari va yozishmalari mashhurdir. Bu yerda biz ularning fors tili lug'atiga ko'rsatgan katta xizmatlari haqida gapiramiz.

Ibn Sino o'z "Donishnomasi" va Beruniy "At-Tafhim"i bilan Eronda shunday harakatni boshlab berdilarki, uning keyingi uzluksiz ta'siri hozirgi asrgacha davom etib kelmoqda.

Bu ikki kitobning yozilishi bilan fors tilining lug'at madaniyati sifat jihatdan yuqori saviyaga ko'tarildi va nihoyatda boyidi. Zero, bu ikki donishmand o'sha vaqtda usul jihatdan Afzal va keng yoyilgan lug'atlardangina emas, balki kitoblar qa'rida singib ketgan matnlardan terma guldasta asadilar. Ular shunday ishni bajardilarki, bu ikki asar doimiy foydalanish uchun dasturil amal bo'ldi. Ular o'z faoliyatlari jarayonida biror lug'at tushunchasini hozirgi ishlatilishi yoki ilgarigi kitoblardan topa olmagan hollarda shunday usulni qo'lladilarki, hozirgi amaldagi istilohlarni yangi ma'nolarda ishlatib, zaruriyat taqozo etganda ularni forsiy birliklarda chiqardilar. Bunday tadbirlar orqali fors tilini o'sha zamon singdira oladigan ilmiy tushunchalarga muvofiq ravishda ishlab chiqdilar.

"Donishnoma" yozilgan vaqt "At-Tafhim" bilan deyarli bir zamonda ro'y berdi. Negaki, "At-Tafhim" 420 hij.qamariyda yozilgan bo'lsa, "Donishnoma" ning yozilgan yili aniq emas. Ammo qat'iy ravishda ta'kidlash mumkinki, 416 va 428 yillar orasida bitilgan [1.45]. Shunga binoan bu ikki kitobning qaysi biri oldin va keyin yozilganligi va biri ikkinchisiga qanchalik ta'sir ko'rsatganligi to'g'risida yozma manbalar yo'q. Nima bo'lganda ham – "Donishnoma" va "At-Tafhim" bir-birlariga nisbatan farqlari mavjud bo'lishiga qaramay, mazmun jihatdan va

tarkibiga qaraganda umumiy jihatlari ko'p bo'lib, bular quyidagilardan iborat:

Lug'at umumiyligi

Obnok – sersuv joy bo'lib, yerning hamma joyidan suv chiqib turadi (“At-Tafhim”, S.329), (“Donishnoma”. Tabiiy”, S.62).

Ormidan (va undan kelib chiqadigan narsalar) – tinch holatda bo'lmoq, harakatsizlik ((“At-Tafhim” S.57), (“Donishnoma”. Tabiiy S. 1907,21,47,95).

Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi asosiy merosi “Tib qonunlari” bo'lib, bu kitobda tibbiyotning barcha sohalari (anatomiya, fiziologiya, kasalliklar sababi, kasallikning belgilari, ularni aniqlash, davolash va h. k.) bo'yicha ilmiy izlanishlar yoritilgan. “Tib qonunlari” taxminan 1012-24-yillarida yozilgan deb hisoblanadi. Ibn Sino o'z asarini yozib tamomlaganidan keyin 150 yil o'tgach, Gerard Kremonskiy (1114-1187) uni birinchi marta lotin tiliga tarjima qiladi. Bu tarjima asl nusxadagi mazmun va ifodani o'zida to'la saqlab qola olmagan bo'lsada, taxminan 7 asr davomida g'arb mamlakatlarida tibbiy bilimlarning birdan-bir qo'llanmasi sifatida xizmat qildi.

Ibn Sino tabobat masalalarini ommabop holda nazm bilan izohlovchi “Urjuza” nomli tibbiy asar yaratdi. Ayniqsa, tabobat, u bilan bog'liq holda anatomiya, psixologiya, farmakologiya, terapiya, xirurgiya, diagnostika, gigiyena kabi ilmlar ibn Sino ijodida bir qancha yangi ixtirolar bilan boyidi va yangi bosqichga ko'tarildi. Bulardan tashqari, kimyo, mineralogiya, astronomiya, matematika, o'simlik dunyosi, geologik jarayonlarni o'rganish sohasida ham u yangi-yangi fikrlarni olg'a sura oldi.

Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi asarlaridan «Kitob al-qonun fit-tibb» («Tib qonunlari»), «Kitob ul-qulanj» («Ichak sanchiqlari»), «Kitob un-nabz» («Tomir ko'rish haqida kitob»), «Fuj ul-tibbiya joria fi majlisih» («Tib haqida hikmatli so'zlar»), «Tadbir ul-manzil» («Turar joyning tuzilishi»), “Fil-hindubo” («Sachratqi o'simligi haqida»), «Risola fi-dastur it-tibbiy» («Tibbiy ko'rsatmalar haqida») kabi asarlari mavjud.

Ibn Sino haqidagi deyarli barcha ma'lumotlarni esa uning eng qobiliyatli va sadoqatli shogirdlaridan biri bo'lgan Abu Ubayd Abdulvohid al – Jurjoni (vafoti 1047) tomonidan yetkazilgan. Ibn Sino asarlarining bizgacha yetib kelishida ukasi Mahmud va ayniqsa, shogirdining hissasi katta. U shogirdi bilan Kaspiy bo'ylarida joylashgan Jurjon (hozirgi Gurgon) da tanishadi.

Ibn Sinoning falsafiy asarlari uning ijodiy merosida asosiy o'rinni egallaydi. Chunki Ibn Sino ilm – fanning shu sohasiga juda qattiq

berilgan edi. Bu uning falsafiy masalalarga bag'ishlangan katta-kichik ko'pdan-ko'p asarlari ro'yxatidan ham bilish mumkin. Chindan ham Ibn Sinoning falsafiy asarlari dunyo miqyosida eng ko'p va keng tarqalgan. Ibn Sino falsafiy asarlarning eng yirigi "ash – Shifo" bo'lib, uning mantiq qismi to'qqiz bo'lakdan iborat va uning har biri o'z holicha alohida bir kitobdir. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, birgina, Ibn Sinoning "ash – Shifo" siga kirgan yirik falsafiy asarlaridan biri "al – Ilohiyot" (Metafizika) kitobi diqqatga sazovordir. Chunki, asar o'n maqola va oltmish bir fasldan iborat bo'lib, Ibn Sinoning bu asariga Aristotelning "Metafizika" asari asos bo'lgan. Ibn Sinoning bu asari bilan uning "ash – Shifo" si tugallanadi. "Al – Ilohiyot" "ash – Shifo" ning oxirgi jumlasini – turkumi sanaladi.

Ibn Sino har bir fanga doir yozilgan asarida shu fanning oldidagi qo'yilgan maqasdlari, bu fanning insonga nafi ustida to'xtaydi.

Ibn Sinoning xuddi shu mavzuda Sharqshunoslik instituti fondida (N-2385) "Risola fi –l – ilohiyot" risolasi saqlanadi.

Jumladan, "Risola fi-l – ilohiyot" risolasida amaliy va nazariy falsafa, javhar va oraz (substansiya va aksidensiya) ta'riflari, muallifning jismlar tuzilishi borasida ilgarigi olimlar qarashiga qarshi bo'lgan fikrlari, sabab va zaruriyat, oldingi va keyingi deganda tasavvur qilingan tushunchalar, jismlar, bo'shliq, to'lalik kabi masalalar, tomonlar, harakatlar va ularning sabablari, aqliy va nafsoniy substansiyalar; vujudning paydo bo'lishi va parchalanishi, ya'ni buzilishi (kavn va fasod) kabi masalalarga to'xtab o'tadi.

Sharqshunoslik instituti fondida falsafaga oid Ibn Sinoning yana bir asari bor bo'lib, bu "al – Kalimat al – Ilohiya" deb ataladi. Bu ham institutning 2385 raqamli "Rasoil al – hukamo" asari ichida bo'lib, bir varaqdan iborat (41 a-b varaq), bunda ham falsafa terminlari ishlatilib, ilohiyot falsafasi haqida fikr yuritiladi. Ibn Sinoning falsafaga oid yirik asarlaridan yana biri "Kitob al-ishorot fi-l-mantiq va-l-hikmat"dir. Bu asarni muallif umrining eng so'nggi yillarida yozgan. Asarning qo'lyozma nusxalari keng tarqalgan ko'rinadi. Uning bir nusxasi Sharqshunoslik institutida 2213 raqamida saqlanadi.

Bu asar ham aslida uch qismdan: mantiq, tabbiyot, moba'da-t-tabia – metafizikadan iborat. Bu qismlarda ham Ibn Sino o'zining falsafaga oid boshqa asarlarida keltirilgan masalalarni boshqacha yo'sinda qaytaradi, chunonchi, dastlab mantiqning foydasi, beshta umumiy tushuncha, mantiqda jumlar va ularning turlari, unda jumlaning tasdiq etilishi-etilmasligi nuqtai nazardan farq, qiyoslar va ularning turlari, jismlar,

zamon va makon, boshlanma, saodat, oriflar maqomi – o'rni kabi mavzular bayon etilgan.

Bu asarga alloma Nasiruddin at – Tusiy va Faxruddin ar – Roziylar atroflicha sharh yozishgan va ularning bu asarlari qo'lyozma va bosma nusxalarda keng tarqalgan. Ushbu asar “al-Ishorat va at – Tanbihot” nomi bilan mashhur bo'lib, XIX asrdan boshlab G'arb mamlakatlarida o'rganila boshlandi.

Abu Ali ibn Sino “Al-Ishorat va at-Tanbihot” kitobini umrining so'nggi davrlarida yozgan bo'lib, kitob ikki jiltdan iborat bo'lib, mantiq ilmi, fizika ilmi, metafizika ilmi va Irfon va tasavvufga bag'ishlangan 10 bo'limdan iboratdir. Birinchi jilt mantiq ilmiga bag'ishlanadi, ikkinchi jilti Fizika, Metafizika, Irfon va tasavvuf nazariyasiga oiddir. Tasavvuf va irfon masalalari “al-Ishorat va at-Tanbihot” ning so'ngi uch bo'lim (namat – النمط) nomi, ya'ni sakkizinchi, to'qqizinchi va o'ninchi bo'lim nomlari nazariy falsafa nuqtai nazaridan asosiy maqsadlarni tashkil etuvchi va Abu Ali ibn Sinoning bu bo'limlardagi haqiqatni kashf etish va ong/sezgi va tasavvufiy tajriba nuqtai nazaridan narsalarning haqiqatini isbotlash uchun dalillar va misollar asosida yoritadi.

Abu Ali ibn Sino mazkur kitobining 8-bo'limini “Quvonch va baxt” (في البهجة و السعادة) deb nomlab, ushbu bo'limda ezgulik va komillik egalari erishgan shodlik va baxt haqida gapirib, ularning turlarini tadqiq qiladi. Uning fikricha, shodlik va baxtning to'rt darajasi bor: idrok, tasavvur, izoh va fikrlash kabi his qilish va ularning eng mukammali aqlga asoslangan baxtdir. Baxt tushunchasiga izoh berar ekan, 19 faslni qamrab olgan bu bo'limda insonga xos salbiy va ijobiy xislatlarga urg'u berib bayon etadi.

Bulardan tashqari, Ibn Sinoning kichik falsafiy asarlari qatoridagi “Ahvol an – Nafs” asari mavjud bo'lib, to'rt risoladan iborat. Bu risolaning dastlabkisi “Ahvol an – Nafs” (“Nafs ahvoli haqida”) deb nomlanadi. Shuningdek, falsafiy risolalar qatoriga bulardan tashqari “al-Masoil al-Ma'duda” (“Sanoqli, ya'ni bir necha masalalar”), “Risalat ba'z al – afozil ila ulamo madinat as – salom fi ma'qulot ash shayx ar-ra'is” (“Kategoriyalar haqida Bog'dod olimlariga yuborilgan risola”) kabi asarlarini ham kiritish mumkin. Ibn Sino falsafiy qarashlari uning zamondoshlari bilan olib borgan yozishmalarida ham aks etgan. Ibn Sino o'z davri taqozo etgan ko'p masalalarga munosabatini bildirgan. Ularning biri “Aristotelning “Osmon haqida”gi kitobiga doir Beruniyning o'nta savoli va unga Ibn Sinoning javobi”dir.

Undan tashqari, Ibn Sino diniy mavzularda ham asarlar yozgan. Bular, alloma davrida ko'pchilikni qiziqtirgan masalalar, unga berilgan

savollarga javoblar tariqasida yozilgan risolalardir. Bunday asar qo'lyozmalarining bir qismi Sharqshunoslik instituti kitob fondida saqlanadi.

Yana Ibn Sino axloq masalasiga ham asarlar bag'ishlagan, ba'zi asarlarda bu xususida to'xtab o'tgan. Bu xil asarlarga Ibn Sinoning yuqorida zikr qilingan "Axloqqa oid risola", "Burch haqida risola", "Turar joyni boshqarish choralari" ("Tadbir al – manozil yo "Tadbir manzil"), kabi asarlarini ham kiritish mumkin. Ibn Sinoning axloq masalasiga uning "ash – Shifo"sidagi ba'zi bir bo'limlarni, "al – Ilohiyot"ning so'nggi fasllarini ham qo'shish mumkin. Allomaning o'zi axloqqa oid asarlarini "amaliy hikmat"ga kiritgan. Bulardan tashqari, Ibn Sino bu to'g'rida o'zining "Tib qonunlari", "Tibbiy doston" (urjuza), "Hayy ibn Yaqzon", "Qush risolasi", "Hikmat chashmalari" va boshqa asarlarida ham to'xtab o'tgan.

Ibn Sinoning yana hikoya – roman shaklida yozgan falsafiy asarlari bo'lib, jumladan, "Risolat at – Tayr" ni aytish mumkin.

Ibn Sinoning ramz bilan yozgan ushbu asariga tasavvuf yo'lida sharh bog'langan. Mazmunan aytganda, qushlarning boshlig'i tilidan nasihat qilib, "...maqsadga erishish yo'lida har qanday og'irliklardan toliqmanglar" [1,52] deyiladi.

Bu asar ham, aslida ramz – ishoralar bilan yozilgan bo'lib, unda jon, haqiqat, tangri to'g'risidagi fikr – g'oyalar adabiy yo'sinda bayon etilgan. Sharqning yirik siymolaridan Fariduddin Attor "Mantiq ut – tayr", ulug' Navoiy "Lison ut – tayr" kabi asarlarini yozishda Ibn Sinoning shu asari asosiy turtki bo'lgan, deyish mumkin. "Qush" haqida birinchi o'laroq kichik asar yozgan Ibn Sinodan so'ng bu sohada asar yozganlar unga qaraganda yanada chuqurroq, yanada kengroq, batafsilroq yozganlar.

"Hayy ibn Yaqzon" da esa aqliy obyektlarni moddiy narsalar bilan gavdalandiradi. Masalan, aqli faolni aqli, tajribakor qari bir kishi sifatida gavdalandiradi [2,18].

Muallifning bu qissasi falsafiy jihatdan diqqatga sazovorki, unda nafs – jon haqidagi g'oyalarini ommaga yengilroq yetkazishga xizmat qiluvchi vositadir.

Ibn Sinoning yozgan qissalari ichida eng keng tarqalgani, xalqchil, sodda va diniy – falsafiy jihatdan ham boy bo'lgan asari "Salomon va Ibsol"dir. Ibn Sino bu hikoyasiga kirgan qahramonlar orqali o'zining aqliy falsafasining ob'yektlarini ko'rsatmoqchi bo'ladi.

Ibn Sino yozgan asarlari orasida falsafiy asarlari ko'p bo'lgani holda, uning falsafiy yozishmalari ham mavjud bo'lgan.

Jumladan, Shayx Abusaid bilan Ibn Sino oralarida bo'lgan yozishmalar – (mukotabot) asosan quyidagi mavzularni o'z ichiga oladi: mantiq ilmi mavzularidan qiyos; falsafa ilmi mavzularidan nafsning badanga aloqasi, duoning qabul bo'lishi, qadar bilan qazo, mashiyat – (taqozo qilish) bilan iroda (istash) farqi va boshqalar”. Aytish kerakki, Ibn Sinoning falsafiy yozishmalari orasida Beruniy bilan bo'lgan savol – javoblari zamonlarining falsafiy mavzular nimalardan iborat ekanligidan xabar beradi va bugunning turli falsafiy, ijtimoiy, ilmiy mavzulardagi muammolariga yechim topishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ularning bu yozishmalari asosan Arastuning “Fazo” va “Fizika” asarlari bo'yicha olib borilgan.

Bu yozishmada Ibn Sino Arastuning tabiat falsafisini himoya qilgan. Beruniy esa Ibn Sinoga e'tiroz bildirgan. Ulaning bahsi asosan Arastu tabiat falsafasining muhim masalalaridan biri – jismlarning cheksiz bo'linishi bo'yicha bo'lgan. Bu borada Beruniyning Ibn Sinoga qarshi chiqqanligini ko'rgan ayrim muallifalar uni Demokrit atomizmining tarafdori degan xulosaga kelganlar. Lekin Beruniy bu masalaga birmuncha jiddiyroq qaragan. U bo'linish muammosini hal etishda shunday yo'lni topishga harakat qiladiki, ikki ta'limot – atomistik va cheksiz bo'linishning o'ziga xos qarama – qarshiliklarini va cheklanishlarini bartaraf etishga intiladi.

Qadimgi yunon va o'rta asr Sharqining ilmiy yutuqlarini umumlashtirgan Ibn Sinoning ilmiy merosi jahon fani rivojiga katta hissa qo'shdi. Abu Ali ibn Sino o'zidan oldin o'tgan Aristotel, Abu Nasr Forobiy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Al – Kindiyalar tomonidan yaratilgan boy va ko'p qirrali g'oyaviy boyliklarning vorisi bo'ldi. Uning falsafasi o'sha davr o'rta asr Sharqining progressiv falsafiy ilmiy fikr rivojining yuksak cho'qqisi edi. Abu Ali ibn Sino o'tmishning progressiv g'oyaviy merosiga ijodiy yondashdi, undagi ma'qul topilgan tomonlaridan foydalandi va Aristotel falsafasidan ko'p tomondan farqli bo'lgan falsafiy sistemasini yaratdi. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy asarlaridan eng muhimlari “Kitob ash – Shifo”, “Kitob an – Najot”, “Kitob al – Ishorat”, “Donishnoma”lardir. Biroq tan olish kerakki, Ibn Sinoning ham, Forobiy, Al - Kindiy va boshqalar ta'limotining turtkisi hamda rivojiga yunon faylasufi Aristotelning hissasi katta bo'lgan. Chunki yunon falsafasining Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodiga ta'siri Hindiston va Xitoy falsafasiga ta'siri bo'lganchalik bo'lmaganligi barchaga ayondir. Shu boisdan Ibn Sino ta'limotiga Aristotelning g'oyalarining ta'siri uning yozgan asarlaridan, ilmiy merosidan ham ko'rsa bo'ladi.

Qadimgi faylasuflarning fikricha, inson ilm va zukkolik tufayli narsalarning haqiqatlaridan xabardor bo'lib, yuqori mohiyatlarga yetishish uchun "Faol aql" darajasiga yetgan bo'ladi va bunda eng yuqori cho'qqini zabt etgan hisoblanadi. Aristotel, Aflotun, Gipokrat va boshqa mashhur faylasuflar bunga misol bo'ladi. "Faol aql" masalasida Ibn Sino o'ziga xos fikrlarni bera olgan. Ibn Rushd (1126-1198) fikriga ko'ra esa "Hammasi Allohning martabasiga ko'ra baholanadi" degan fikriga duch kelishimiz mumkin [3,146].

Abu Ali ibn Sino fikricha, insonlar fe'l-atvorida ayrim nuqsonlar bo'ladi, qaysiki odamlar doimo bulardan o'zini asrab-avaylab yurishi, iloji boricha ulardan qochishi lozim. Ana shu nuqsonlarni u sanab ko'rsatadi. Bularga yolg'onchilik, rashk, xusumat, qasd olish, tuhmat, irodasizlik kabi salbiy xislatlarni kiritadi. Bular ichida eng katta nuqson, deydi Ibn Sino, kishining noyob fazilati bo'lgan ilmga zid keladigan nodonligidir

XULOSA

Xullas, Ibn Sinoning sertashvish hayoti va seqirra ijodini qancha o'rganilmasin, shuncha oz. Chunki olim hayoti davomida tibbiyot, falsafa, fiqh va boshqa ko'plab ilmlar bilan shug'ullanib, juda ko'p asarlar yozgan. Uning falsafiy merosini o'rganish, undagi ilmiy yangiliklarni hayotga tadbqiq etishda ilm – fan rivojiga ulkan hissasini qo'shishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ibn Sino. Hay ibn Yaqzon. Sharafiddin Yaltkaya tarjimasi. Istanbul 2014.
2. Hassan, Nawal Muhammad, *Hayy bin Yaqzan and Robinson Crusoe: A study of an early Arabic impact on English literature*, Republic of Iraq: Al-Rashid House for Publication, 1980
3. Davidson, Herbert Alan (1992). *Alfarabi, Avicenna, and Averroes, on Intellect Their Cosmologies, Theories of the Active Intellect and Theories of Human Intellect*. Oxford University Press. p
4. Henri Corben Tarix ul-Falsafa al-Islom. Bayrut – Livan. 1966.
5. ابن سينا. الإشارات والتنبيهات. التحقيق: مجتبى الزارعي. الناشر: مؤسسة بوستان كتاب. ص. 190.
(Ibn Sino. "Al-Ishorat va at-Tanbihot". Muhtaba Zaraiy tahlili)

Abirov V. Anthropological approaches to the study of tangible cultural heritage traditions.....	467
Abirov V., Nazarov M. Traditional men's clothing and its socio-cultural expression (on the example of 20th-century Central Asia).....	478
Botirova D. Psychological analysis of developing aesthetic taste and creative ability (on the example of pottery art).....	490
Shosaidov A. Information on the traditional economic culture of the peoples of Central Asia in archival documents.....	495
Isakov R. On research into the social structure of the Uzbeks in the Amudarya delta (based on the materials of the Khorezm archaeological-ethnographic expedition).....	502
Nursoatov S. Interpretation of family crafts in Turan in the middle ages (based on "Travels of Ibn Battuta").....	510
Avloqulov B. Methodology for creating a national digital catalog of intangible cultural heritage objects in Uzbekistan.....	516

SESSION №5

KEY DIRECTIONS IN EASTERN PHILOSOPHY AND CULTURE

Kodirov M. The formation of islamic sources and sciences in Eastern civilization.....	523
Izzetova E., Omonova M. Social-cultural identity as a factor of intercultural communication (on the example of Japan).....	530
Saydalieva N. The role of Farabi in the cultural and civilizational unification of the peoples of the East.....	541
Kashmeri M. Bhagavad Gita as a bridge: historical and philosophical encounters between Bharat and Central Asian civilizations.....	548
Sulaymonov J. Analysis of factors affecting social development in Ibn Khaldun's "Muqaddima".....	565
Ikramova I. Comparative study of the philosophical views of Ibn Rushd and Thomas Aquinas.....	571
Jurayev Sh. The global significance of Ibn Sina's scientific legacy.....	580
Sulaymonova Sh. Social significance and praxiological aspects of Ibn Miskawayh's concept of personal performance.....	589
Ismoilov Sh. Navigating the depths of Iqbal's philosophy: a socio-religious voyage.....	603
Jurayev M. Religious-ideological environment and scientific centers of Maverannahr in the 9th–10th centuries.....	613
Mardonova M. Jaloliddin Rumi and western scholars shared ideas on spiritual existence: the development of their views on society.....	620
Abdufattayeva Sh. The idea of islamic reform in the worldview of Fitr'at.....	626

<i>Pulatova S.</i> Study of human will, freedom of choice, and responsibility in Nasafi's existential approach.....	631
<i>Salimov Sh.</i> Confucian values and the synthesis of democracy: the identity of civil society.....	638
<i>Ergasheva B.</i> The issue of raising girls in Eastern philosophy and culture.....	645
<i>Izzetova E., Shomukimov L.</i> Philosophical and retrospective analysis of the modernizing concept of Ismail Gasprinsky in the context of the development of jadidism in Central Asia.....	654
<i>Izzetova E., Mamadaliev A.</i> Philosophical analysis of the moral aspects of Fariduddin Attor's gnoseological concept.....	666
<i>Ikramova I., Rashidova Kh.</i> Abu Ali Ibn Sina's gnoseological and anthropological views.....	676
<i>Pulatova M., Jalolkhonov A.</i> Three hundred Kufi Qaf.....	683
<i>Pulatova M., Tursunboyev A.</i> The role of the Qur'an and hadith in eastern philosophy and culture.....	689